

## SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA MAYMUNJON

### YETISHTIRISH ISTIQBOLLARI

<sup>1</sup>Turakulov Umid Xayitovich,

<sup>1</sup>Temirov Elmurod Eshboy o'g'li,

<sup>2</sup>Kasimbaev Avazbek Xaitbekovich

<sup>1</sup>O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti

Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasi

<sup>2</sup>Toshkent davlat agrar universiteti

### Annotatsiya

Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati tuproq-iqlimi sharoitida maymunjon yetishtirish istiqbollari yoritilgan. Tadqiqot ob'ekti sifatida maymunjonning Chester Tornless va Karakablek navlari xizmat qilgan. Ushbu nav o'simliklarini Surxondaryo viloyati tuproq-iqlimi sharoitida o'sishi va rivojlanishining morfo-biologik xususiyatlari o'rganilgan. Kuzatuvlar natijasida viloyat tuproq-iqlimi sharoitida maymunjondan eng ertagi – may oyining oxirgi o'n kunligida hosil olish mumkinligi isbotlangan. Shuningdek, maymunjon ko'chatlarini yashil qalamchalash usulida yetishtirish tajribada sinalgan. Tajriba sun'iy tuman hosil qiluvchi avtomat qurilma bilan jihozlangan plynkali istilmaydigan inshootda qum, biogumus va chim tuproq qatlamlaridan iborat sun'iy substratda o'tkazilgan. Tajribada yashil qalamchalarga o'sishni boshqaruvchi modda IMKning 50 mg/l konsentratsiyasi bilan 2 soat mobaynida ishlov berilgan. Ushbu usulda ko'paytirilganda maymunjon yashil qalamchalarining ildiz oluvchanligi qariyb 94,3% gacha yetgan.

**Kalit so'zlar:** maymunjon, tuproq-iqlim, o'sish, rivojlanish, nav, o'sishni boshqaruvchi modda, yashil qalamcha, ildiz oluvchanlik, ko'chat.

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning eng janubiy hududi hisoblanadi. Ushbu viloyat bahorning erta kelishi, yozning quruq va issiq o'tishi, yog'ingarsilik miqdorining kamligi bilan alohida ajralib turadi. Viloyatning iqlimi janubda quruq cho'ldan shimolda (Uzun shahri) subtropikkacha o'zgarishi bilan ifodalanadi. Boshqa viloyatlarga nisbatan issiqroq iqlim kuo'atiladi, ya'ni yanvar oyining o'rtacha harorati +3 °S, iyul oyida esa +30 °C ni tashkil etadi. Yillik yog'ingarchilik miqdori juda past: tekislik yerlarida 130 mm dan 360 mm gacha, tog'oldi hududlarda 440 mm dan 620 mm gacha o'zgaradi.

Ma'lumki, respublikamiz aholisi rezavor mevalarni suyib iste'mol qiladi, undan har xil konserva mahsulotlari (jem, murabbo va b.) tayyorlashadi va qandolatchilik mahsulotlari tayyorlashda keng foydalanishadi. Rezavor mevalarga talab boshqa mevalar hali pishmagan kech bahorgi davrlarda ayniqsa ortib ketadi. Bu borada viloyatning tuproq-iqlim sharoitlari ayniqsa muhim bo'lib, ko'pgina rezavor mevalardan juda ertagi va arzon tannarxli mahsulot yetishtirish imkonini beradi.

Shunday rezavor mevalardan biri maymunjon bo'lib, ushbu meva o'zining ajoyib ta'mi va boy biokimyoviy tarkibi bilan rezavor mevalar orasida alohida ajralib turadi. Uni ko'pgina xalqlar tabiiy «vitaminlar majmui» deb atashadi. Binobarin, maymunjonning yaxshi pishgan mevalari tarkibida S, Ye, R, RR, K, V guruh vitaminlari, A provitami, mineral moddalardan K, Na, Mg, Ca, Fe, P, Cu va b., kletchatka, qand (fruktoza va glyukoza), organik kislotalardan limon, olma, salitsilat va uzum kislotalari, tokoferol, pektin va boshqalar mavjud [4, 5].

Maymunjonni istiqbolli deb atashimizning boisi shundaki, viloyatning ko'pgina tekislik hududlarida uning yovvoyi turlarini ko'plab uchratish mumkin. Yovvoyi maymunjon turlari viloyat tuproq-iqlimi sharoitida erta bahorda (fevral oxiri-mart boshlari) barg yoza boshlaydi. Mevalari yoz boshlarida pishib yetiladi.

Alohida ta'kidlash joizki, garchi maymunjonning yovvoyi turlarini ushbu hududda ko'plab uchratish mumkin bo'lsada, uning madaniy navlarini yetishtirish hozirgacha amalda yo'lga qo'yilmagan. Ko'rinib turibdiki, maymunjonning madaniy turlarini viloyat tuproq-iqlimi sharoitiga introduksiya qilish ushbu qimmatli rezavor mevani yetishtirish arealini yanada kengaytirish, eng muhimi ushbu mevadan eng ertagi hosil yetishtirish istiqbolini belgilaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanida joylashgan O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutining Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasiga maymunjonning madaniy navini introduksiya qilish yuzasidan tajriba olib bordik. Tadqiqot ob'ekti sifatida maymunjonning Chester Tornless navidan foydalanildi.

Maymunjonni Chester Tornless va Karakablek navlarining bir yoshlik ko'chatlari noyabr oyida o'tqazildi va qishlov uchun qoldirildi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, maymunjon o'simligida vegetatsiya davrining boshlanishi – kurtaklarning burta boshlashi viloyat tuproq-iqlimi sharoitida fevral oyining oxirgi o'n kunligiga to'g'ri keldi (jadval).

**Jadval-1 Surxondaryo viloyati sharoitida maymunjon navlari o‘simliklarida fenologik fazalarning o‘tishi va o‘suv davri davomiyligi**

Navlar	Kurtaklarning yozila boshlashi	Gullashi	Mevalarining pisha boshlashi	Vegetatsiya davri davomiyligi, kun
Chester Tornless	23/II	13/IV	28/V	261
Karakablek	27/II	21/IV	2/VI	270

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, Surxondaryo viloyati sharoitida maymunjon navlari o‘simliklarida vegetatsiya davri deyarli bir xil muddatda – 4 kun farq bilan boshlandi. Biroq ularning gullash muddatida biroz sezilarli farq kuzatildi. Binobarin, erta gullashi bilan Chester Tornless navi ajralib turdi. Ushbu navda dastlabki gullarning ochilishi 13 aprel sanasida qayd etildi. Karakablek navida esa gullash ushbu navdan bir hafta keyin boshlandi.

Maymunjon navlarida mevalarining pisha boshlashi ham sezilarli farq qildi. Bunda Chester Tornless navida mevalarining pisha boshlashi may oyining oxirida – 28 may kuni qayd etilgan bo‘lsa, Karakablek navida mevalarining qizara boshlashi 2 iyulga to‘g‘ri keldi. Bundan ko‘rinib turibdi, Chester Tornless ertapishar, Karakablek navi esa kechpishar nav hisoblanadi.

Xazonrezgilik alomatlarining namoyon bo‘la boshlashi Chester Tornless navida noyabr oyining birinchi o‘n kunligida, Karakablek navida esa ushbu oyning ikkinchi o‘n kunligida kuzatildi. Bunga bog‘liq ravishda navlarning vegetatsiya davri davomiyligi mos holda 261 va 270 kunni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati sharoitida maymunjon navlari o‘simliklarining o‘sishi va rivojlanshini kuzatish bo‘yicha tajribalarimiz ushbu viloyat sharoitida uni muvaffaqiyat bilan teishtirish mumkinligini isbotladi. Bunga bog‘liq ravishda uni ko‘paytirish bo‘yicha ham qo‘shimcha tadqiqotlar olib borildi. Buning uchun ushbu rezavor meva o‘simligini yao‘hshil qalamchasidan ko‘paytirish maqsad qilindi. Ma’lumki, maymunjon uchki parxishlash, tupini bo‘lish, ildiz bachkisini olish, yashil va yog‘ochlashgan qalamchalarini ildiz oldirish usullarida ko‘paytiriladi. Olimlarning ta’kidlashicha [1, 2, 3], bular orasida yashil qalamchalash eng samarali usullardan hisoblanadi.

Tajriba sun’iy substrat va sun’iy tuman hosil qiluvchi avtomat qurilma bilan jihozlangan plyonkali istilmaydigan inshootda o‘tkazildi. Buning uchun

maymunjonning Chester Tornless navi ona tuplarining joriy yilgi novdalaridan may oyining ikkinchi o'n kunligida 8-10 sm uzunlikda qalamchalar tayyorlandi. Maymunjon murakkab bargli o'simlik bo'lganligi sababli, qalamchada uning bitta barg bo'lakchasi qoldirildi, pastki bo'g'imdagi bargi butunlay olib tashlandi. Qalamchalarga o'stiruvchi modda – indolilmoy kislotasining 50 mg/l suv konsentratsiyali eritmasi bilan 2 soat davomida ishlov berildi. Maymunjonning ushbu ishlov berilgan yashil qalamchalari ekish oldidan toza suv bilan chayib tashlandi. So'ngra ular mikroiklimli inshoot ichidagi qum, biogums va chim tuproq qatlamlaridan iborat substratga o'tqazildi. Ekish sxemasi 15x15 sm. Bunday holatda inshootning bir kvadrat metriga 44 dona qalamcha o'tqaziladi.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, yashil qalamchalarda kallus va ildiz bo'ohrtmalarining hosil bo'lishi qalamchalar sun'iy substartga ekilganidan so'ng 11 kuni qayd etildi (rasm).



**1-rasm. Maymunjonning ekish uchun tayyorlangan va ildiz bo'rtmalari hosil bo'lgan yashil qalamchalarining ko'rinishi**

Yashil qalamchalarda yangi novdalarining hosil bo'lishi esa 19 kundan boshlab kuzatildi. Ildiz olgan va novda hosil qilgan qalamchalarni hisob qilish shuni ko'rsatdiki, ushbu usulda ko'paytirilganda maymunjon yashil qalamchalarining ildiz oluvchanligi qariyb 94,3% gacha etdi.

**Xulosa.** Maymunjon o'simligini Surxondaryo viloyati tuproq-iqlimi sharoitida etishtirish istiqbolli bo'lib, juda ertagi hosil olish imkonini beradi. Jumladan

maymunjonning Chester Tornless navi ushbu hududda iyun oyining birinchi o'n kunligida pishib etiladi.

Maymunjonni yashil qalamchasidan ko'paytirishda qalamchalarni Surxondaryo viloyati tuproq-iqlimi sharoitida may oyining ikkinchi o'n kunligida tayyorlash va qum-biogumusdan iborat sun'iy substratga ekish yaxshi natija beradi. Yashil qalamchalarning ildiz olishini tezlashtirish uchun ularga IMKning 50 mg/l suv koncentratsiyalari bilan ishlov berish tavsiya etiladi. Ushbu holatda jami ekilgan qalamchalarga nisbatan tutib ketganlarining miqdori qariyb 94% ga etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vladimirov S. Razmnojenie ejeviki cherenkami: obzor luchshix metodov i rekomendatsii. <https://klumba.guru/yagody/razmnozhenie-ezheviki-cherenkami.html>
2. Dobrenkov E.A. Adaptivniy potentsial ejeviki v klimaticheskix usloviyax Zapadnogo predgorya Severnogo Kavkaza. – Avtoref. kand.diss...s.-x. nauk. – Sankt-Peterburg, 2002. – S. 3-8.
3. Zaxarova M.V. Osobennosti kultury ejeviki na Severo-Zapadnom Kavkaze. – Avtoref. kand.diss...s.-x. nauk. – Krasnodar, 2002. – S.3-5.
4. <https://hi-chef.ru/product/ezhevika/#>:
5. <https://agronomu.com/bok/1218-poleznye-svoystva-ezheviki-primeneniye-v-narodnoy-medicine-i-protivopokazaniya.html>